

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 18-sentabr № 10 (1556)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

MUROJAAT

Halol va pokiza mehnatimiz bilan nafaqat korxonamiz, balki yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shaylik!



TABIAT MUHOFAZASI

Ota-bobolarimiz ariq, daryo va hovuz suvlarini pokiza saqlashni o'zlarining burchlari, deb bilganlar.



USTOZ

Ustoz faqat o'quvchiga harf tanitgan emas, balki insoniylikni, matonatni, intizomni ham o'rgatgan insondir.



ISLOHOTLAR YO'LIDA

STRATEGIK RIVOJLANISH SARI DADIL QADAMLAR

So'nggi paytlarda "O'zmetkombinat" AJda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pasayib borayotgan edi. Ishlab chiqarish rejalari bajarilmasligi, asosiy xomashyo – temir parchalari yetkazib berish tizimining izdan chiqqani sababli, korxonaning metallurgiya siklida uzilishlar yuzaga kelgan edi. Bu esa ishchi o'rinlarining qisqarishi, mehnat jamoasi orasida ruhiy tushkunlik va kombinatning iqtisodiy barqarorligiga putur yetishiga sabab bo'ldi.

HAMKORLIK ALOQALARI KENGAYDI

Shunday sharoitda kombinatga yangi rahbar tayinlandi. Yangilangan rahbar jamoasi qisqa fursatda korxonaning muammolarini tahlil qilib, ularni hal etish choralarini ko'ra boshladi. Eng avvalo, xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Kombinatsion kompaniyalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni maqsad qilgan.

Metallurgiya sanoati – yuqori energiya iste'moli bilan ajralib turadigan sohalardan biri. Shu bois, energiya tejamkorlik va resurs samaradorligini oshirish "O'zmetkombinat" rivojining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi.

MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI

Kombinatda muhim qadamlardan biri – energiya samaradorligini oshirish bo'yicha Xitoyning "Sinoma" davlat kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha hisoblanadi. Yaqinda ushbu kompaniya bilan memorandum imzolandi. Unga ko'ra, "Sinoma" mutaxassislari tomonidan "O'zmetkombinat"da audit ishlari o'tkazilib, energiya tejamkorligini oshirish bo'yicha qator texnik loyihalar amalga oshiriladi.

Kombinatda hozirda faoliyat yuritayotgan ko'plab nasos agregatlari, kompressorlar va transformator qurilmalari va boshqalar texnikaviy jihatdan eskirgan bo'lib, ular energiyani me'yordan ortiq sarflamoqda.



Shulardan hammasi modernizatsiya qilinadi. Bu bilan 30 foizgacha elektr energiyasi tejab qolinishi ko'zda tutilmoqda.

Kombinatdagi metallurgik jarayonlar natijasida katta miqdorda issiq gazlar atmosferaga chiqarilmoqda. Bu issiqlik resursini yo'qotish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy yo'qotishga ham olib keladi. Atmosferaga chiqadigan issiqlikdan samarali foydalanish maqsadida maxsus energiya generatorlari o'rnatiladi. Bu orqali yana 10 megavattgacha qo'shimcha energiya ishlab chiqarish imkoni paydo bo'ladi. "Sinoma" kompaniyasi loyihaga to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritadi. Kombinatsion kompaniya faqat 15 foizlik moliyaviy ulush bilan ishtirok etadi. Qolgan mablag' loyiha natijasida olinadigan iqtisodiy foyda hisobidan, 5 yil mobaynida to'lab beriladi.

Shubhasiz, bu kabi innovatsion va moliyaviy jihatdan oqilona yondashuv "O'zmetkombinat"ning tiklanishida, uning bozorda raqobatbardosh korxona sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TEXNOLOGIK SALOHIYAT OSHIRILADI

Yaqinda kombinatga metallurgiya shlaklarini qayta ishlash sohasida faoliyat yurituvchi Avstriyaning "AMCOM L.L.C.", Buyuk Britaniyaning "Citi Bank" kompaniyalari vakillari ham tashrif buyurishdi. Bu

kompaniyalar vakillari bilan kombinatning investitsion jozibadorligini oshirish, keyingi strategik rivojlanishga qaratilgan hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi.

Ayniqsa, jahondagi eng yirik po'lat ishlab chiqaruvchilardan bo'lgan Xitoyning "Jianlong Group" kompaniyasining yigirmaga yaqin yetakchi ilmiy-tadqiqotchi va texnologiya mutaxassislarning kombinatimizga tashrifi e'tiborli voqea bo'ldi.

Mehmonlar kombinatning tarkibiy bo'linmalari, ishlab chiqarish quvvatlari bilan yaqindan tanishdilar. O'zaro uzoq muddatli hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi. Mutaxassislar ishlab chiqarish jarayonini har tomonlama tahlil qilib, mavjud imkoniyatlarni chuqur o'rganishdi hamda texnologik yangilanish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan sessiyalarni o'tkazishdi.

Mazkur tashrifning asosiy maqsadi – korxonani tubdan texnologik rivojlantirish, quvvatlarni kengaytirish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdir.

"O'zmetkombinat" AJda amalga oshirilayotgan bu islohotlar nafaqat korxonaning texnologik salohiyatini oshirish, balki uni xalqaro bozorlarda raqobatbardosh ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi.

Diyor ISMADIYOROV.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – UMUMIY BURCHIMIZ

Hurmatli hamkasblar, qadrlı kombinat jamoasi a'zolari!

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda, jumladan, sanoat va iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni samarali ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turli dasturlar va chora-tadbirlar bu illatga barham berish maqsadida amalga oshirilmoqda. Biz ham, metallurgiya kombinati xodimlari sifatida, bu boradagi davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashimiz, javobgarlikni his qilishimiz kerak.

Korrupsiya nafaqat qonunbuzarlik, balki jamiyatimiz va iqtisodimiz, ma'naviyatimiz uchun og'ir zarar keltiradigan illatdir. U ishonchni yo'qotadi, resurslarni noto'g'ri taqsimlaydi, adolatsizlikka yo'l ochadi.

Har birimiz fidokorona mehnat qilib kombinatimiz, mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishga harakat qilmoqdamiz. Biz, albatta birgalikda mehnat yutuqlariga erishib kombinatimiz salohiyatining yanada o'sishiga erishamiz.

Lekin bu yutuqlarimizga tahdid soluvchi, korxonamiz salohiyatini sustlashtiruvchi, ishonchimizni so'ndiruvchi korrupsiyaga yo'l qo'ymas-

MUROJAAT

ligimiz kerak. Korrupsiyaga qarshi birga kurashmasak, ishlab chiqarish jarayonlari, moliyaviy operatsiyalar va kadrlar siyosatimizda nosozliklar paydo bo'lishi mumkin. Bu esa kombinatga va har birimizga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun o'z vazifamizga halollik bilan yondoshishimiz shart. Metallurgiya kombinatida ishchi-xodimning mehnati shaffof va adolatli baholanishi zarur. Buning uchun barcha ish jarayonlarida ochiqlikni ta'minlashimiz, har bir qarorga mas'uliyat bilan yondashishimiz lozim. Har qanday noqonuniy harakatlar, pora talab qilish yoki berishga yo'l qo'ymaslik zarur. O'z vazifalarimizni odilona va qat'iy bajarib, manfaatlar to'qnashuvidan saqlanish burchimiz ekanligini doimo yodda tutaylik.

Korrupsiyaga oid ma'lumotlarga diqqat bilan yondashib, bunday holatlarni yashirishga yordam bermang. Korrupsiya holatlarini ko'rgan yoki eshitgan paytda kombinat rahbariyatiga yoki tegishli idoralarga darhol xabar qilishimiz shart.

Har birimiz korrupsiyaga qarshi kurashda faol bo'lsak, kombinatimizda sog'lom ish muhiti yaratiladi, ishonch va adolat sohada mustahkam-

lanadi. Bu esa mahsuldorlikni oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratishga, ish haqini oshirishga, yangilanish va modernizatsiya jarayonlarini jadal-lashtirishga imkoniyat beradi.

Biz hamkorlikda kombinatimizning kelajagini barqaror va obod qilishga qodirmiz. Faqat bir-damlik va shaffoflik orqali biz nafaqat ishimizda, balki hayotimizda ham yuksalishga erishamiz.

Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Sizlarni yana bir bor korrupsiyaga qarshi qat'iy turishingizni so'rayman. Birgalikda haqiqiy o'zgarishlar, haqiqiy yutuqlarga erishamiz! Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat qonuniy majburiyatimiz, balki insoniy burchimizdir.

Metallurgiya kombinatida yaratilayotgan sog'lom muhit, ishonchli moliyaviy tizim va yuksak mas'uliyatga asoslangan boshqaruv – bizning kelajak muvaffaqiyatlarimizning kafo-latidir.

Keling, halol va pokiza mehnatimiz bilan nafaqat korxonamiz, balki yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shaylik!

Asror TO'RABOYEV,

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktorining moliya iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari.

"YONG'INDAN OGOHLIK"

FAOL ISHTIROK ETAYLIK!

Mamlakatimizning barcha joylarida bo'lganidek 15-sentabrdan 15-oktabrgacha kombinatimizda ham "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi doirasida yong'in xavfsizligi bo'yicha profilaktika tadbirlari o'tkazilmoqda.

"O'zmetkombinat" AJga qarashli ob'ektlarda yong'inlarning oldini olish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan joriy yilning o'tgan davri mobaynida kombinatga qarashli barcha ob'ektlarda yong'inga qarshi profilaktik tadbirlar o'tkazilib, tegishli inshootlar rahbarlariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar, tavsiyalar berildi. Shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish maqsadida ishchi va xizmatchilar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. Qolaversa, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun ro'y bergan hodi-salar bo'yicha yo'riqnomalar o'tkazildi.

Aziz metallurglar!

Sizlarni "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi doirasida kompleks profilaktika tadbirlarida faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Javlon UMRZOQOV,

"O'zmetkombinat" AJ OYOXTTEB inspektori.



AVTOBUS QATNOVI TIKLANDI

"O'zmetkombinat" AJ hududida ishchi-xodimlarni tashish uchun mo'ljallangan avtobuslar qatnovi qaytadan yo'lga qo'yildi.

Shu munosabat bilan bo'lib o'tgan tantanali tadbirda "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Bahodir Abdullayev bu muhim voqea bilan jamoani tabrikhladi. U avtobus qatnovining tiklanishi bu metallurglarga e'tibor, ularning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va qulay mehnat sharoitlari yaratishga qaratil-

gan qadam ekanini alohida ta'kidladi.

Endilikda xodimlar avtobusni bekatlarda 15 daqiqadan ortiq kutmaydilar. Avtobuslar hududi 330 gektar bo'lgan korxonada metallurglarning yo'lda harakatlanish vaqtini qisqartiradi.

Avtobuslar Avtotransport xizmati (Yo'qilg'i quyish shahobchasi)dan Rangli metallar ishlab chiqarish korxonasigacha va orqaga tasdiqlangan jadval asosida qatnaydi.

BIRDANIGA IKKITA JAZO BERILADIMI?

Agar xodim ma'muriy javobgarlikga tortilgan bo'lsa, ish beruvchi yana uni intizomiy tartibda jazolashi mumkinmi?

K. Zokirov.

Mehnat kodeksining 313-moddasi 3-qismida qayd etilganidek, bir intizomiy qilmish uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin. Lekin bu cheklov faqat intizomiy jazolarga taalluqli. Agar xodimga ma'muriy jazo qo'llangan bo'lsa, bu uning mehnat vazifalariga bog'liq bo'lgan holda bo'lsa, unga qo'shimcha ravishda intizomiy jazo ham belgilanishi mumkin.

Mehnat kodeksining 313-moddasidagi ta'qiq – "bir qilmish – bir intizomiy jazo" tamoyiliga asoslangan. Ammo agar xodimning qilmishi faqatgina ma'muriy huquqbuzarlik bilan chegaralanib qolmay, u mehnat intizomi nuqtai nazaridan ham qonunbuzarlik sanalsa, unga

nisbatan intizomiy chora ham ko'rishga yo'l ochiq bo'ladi.

Masalan, tasavvur qiling, ishchi o'z vazifasini bajarmagani uchun boshqalar hayoti xavf ostida qolib, favqulodda hodisa sababchisi bo'ldi. Bu holat uchun unga MJTKga asosan ma'muriy javobgarlik belgilanishi mumkin. Lekin shu bilan birga, agar bunday harakat ish vazifalarini qo'pol buzish deb ichki qoidalarda ko'rsatilgan bo'lsa, ish beruvchi Mehnat kodeksining 312-moddasiga asosan intizomiy jazo – masalan, hayfsan yoki hatto mehnat shartnomasini bekor qilishni ham qo'llashi mumkin.

ISLOMDA TABIAT MUHOFAZASI

Alloh taolo dunyodagi barcha zohiriy va botiniy ne'matlarni Hazrati inson omili uchun yaratdi va unga bo'ysundirib qo'ydi. Alloh taolo mukarram insonlar zimmasiga fazoni toza va pokiza saqlash hamda atrof-muhitni muhofaza etishdek buyuk mas'uliyatni yuklagan. Tabiatni muhofaza etish, islom dinining asosiy ta'limotlaridan biri hisoblanishiga ham mana shu ilohiy majburiyat sabab bo'lgan.

Islom dini barchalarimizga yashayotgan maskanlarimizni toza va ozoda bo'lishi, ichimlik suvimizni beg'ubor, o'zimizni esa pokiza bo'lib yurishimizga buyuradi. Asrlar davomida ota-bobalarimiz ariq, daryo va hovuz suvlarini pokiza saqlashni o'zlarining burchlari, deb bilganlar.

Kundalik turmushimizda istaymizmi-yo'qmi, turli xil chiqindilar to'planib qoladi. Agar ularni o'z vaqtida maxsus joylarga chiqarib bartaraf qilinmasa, bordi-yu ularni ariqlarga, suv havzalariga va aholi istiqomat qiladigan joylarga tashlansa, atrof-muhit, suv, tuproq havosini ifloslantirib, salomatlik uchun nihoyatda xavfli turli xil yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning bir hadisi shariflarini keltirib o'tamiz: "Chang va g'uborlardan ehtiyot bo'linglar, undan turli xil yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkin", – deganlar.

Tabobat ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino bobo-

miz: "Agar havoda chang va tutun bo'lmaganda edi inson ming yil yashagan bo'lur edi", deganlar. Demak, atrof-muhit, havo qanchalik toza va ozoda bo'lsa, turli xil yuqumli kasalliklarning oldini olish mumkin ekan.

Tabiat Allohning ulkan ne'matlaridan biridir. Alloh taolo bizning baxtiyor, qulay yashashimiz uchun tayyorlab, jihozlab bergan bu sayyorani ifloslantirmasligimiz, unda buzg'unchilik qilmasligimiz yoki unga nisbatan yomon muomalada bo'lmasligimiz lozimdir. Aks holda, tabiatni asramaslik, yer yuzida buzg'unchilik, dahshatli falokatlariga olib kelishi tayin.

Alloh taolo Toha surasining 53-oyatida shunday marhamat qiladi. Ya'ni: "U yerni sizlar uchun beshik qarorgoh qilib qo'ydi va undan yo'llar paydo qildi hamda osmondan suv yomg'ir, qorlarni yog'dirdi. Bas, Biz u suv bilan turli xil o'simliklarni undirib chiqardik". Go'dak uchun beshik qarorgoh bo'lsa, yer ham inson uchun shunday qarorgohdir. Yerni beshik qilib undan rizqlantirib, osmondan suvlarni tushirib daraxt va giyohlarni undirib qo'ygan zot Alloh taolodir.

Manbalarga murojaat qilsak, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida dehqonchilik va ko'chat ekishga targ'ib qilganlar. Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan hadislarida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Qaysi bir musulmon kishi bir daraxt yoki

ekin eksayu, undan qushmidi yoki inson va biror hayvon yesa shu sababli ul kishi ehson qilganlik savobiga erishadi", deganlar.

Chindan ham savob umidida, ezgulik yo'lida bir daraxt yoki urug'ni ekishda katta mukofot va manfaat borligini hadisi shariflar ham quvvatlab turibdi.

Ergashboy HAMIDOV,
Bekobod shahar bosh imom-xatibi.



SAVOBLI ISHGA HISSALARINI QO'SHDILAR

O'tgan shanba kuni kombinatda hashar uyushtirildi. Shu kuni hasharchilar korxona hududini obodonlashtirib savobli ishga his-salarini qo'shdilar. Ular tomonidan yo'llar va xiyobonlar ta'mirlandi, daraxtlarga shakl berildi, maysazorlar o'rildi va ko'kalamzor-lashtirish ishlari amalga oshirildi.

SHOGIRD USTOZ HAQIDA

PO'LATDEK QAT'IYATLI MURABBIY

METALLURG PO'LAT, USTOZ ESA QALB BILAN ISHLAYDI


Isroil Mandanov O'zbekiston metallurgiya kombinatida qirq yildan ortiq faoliyat yuritgan, fidoiy va mehnatkash po'lat erituvchi edi. U kishi faqat po'lat bilan ishlamasdi – u qalblar, ko'ngillar ustasi ham bo'lgan.

U kishi haqiqiy murabbiy edi. Hayoti bilan, ishlari bilan, maslahati bilan yoshlarga yo'l ko'rsatardi.

Men u kishi bilan ilk bor Marten sexida ishlab chiqarish amaliyotida murabbiy sifatida tayinlanganda tanishgan edim. Birinchi kuni qattiqqo'l, jiddiy yuzini ko'rib, ko'plar undan qo'rqqan. Ammo bir hafta o'tar-o'tmas, hamma-miz uning kimligini yaqindan bilib oldik. Po'latni eritgani kabi qalb-larni ham yumshatadigan inson ekan u.

Bir kuni u menga shunday dedi: – Bilib qo'y. Po'lat eritish uchun harorat kerak. Insonni esa ishonch eritadi. Sen o'zingga ishonsang zo'r po'lat erituvchi bo'lasan.

Bu so'zlar menga saboq bo'ldi.



Keyinchalik "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari bilan taqdir-lanishimda ustozimning bergan saboqlari ahamiyati ham katta bo'ldi.

Isroil aka har bir shogirdini sinab ko'rar, og'ir ishlarga ham bosh-qosh bo'lardi. Lekin hech qachon yolg'iz qoldirmasdi. U kishi yoningda bo'lsa, hatto 1000 darajadan ziyod issiqlikda erigan metall ham seni qo'rqitmasdi.

Metallurg bo'lish – po'lat bilan ishlashdir. Ustoz bo'lish – qalb bilan. Isroil aka esa har ikkisini teng biladigan kishi edi.

Ahmadjon SAIDQULOV.



Bekobod – Toshkent viloyatining sanoat yuragi, metallurgianing mustahkam ustuni bo'lgan shahar. Shahardagi "O'zmetkombinat" AJ mamlakat qora metallurgiya sanoatining eng yirik korxonasi.

KO'ZDA NUR, YELKADA MAS'ULIYAT



Shu korxonada Alijon aka ko'p yillardan beri faoliyat yuritadi. U navli prokatlash bo'linmasida ishlab chiqarilgan armatura, burchakli temir, shveller kabi prokat mahsulotlarini buyurtmachilarga jo'natadi.

– Biz tayyorlayotgan prokat mahsulotlari – yurtimiz poydevori. Usiz mamlakatimizda olib borilayotgan olamshumul qurilishlarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz yurtimiz ravnaqiga poydevor qo'ymoqdamiz, – deya o'z ishidan g'ururlanadi.

Tajribali ishchi yoshlarning mehnatga ko'nikma hosil qilishlarida ham yordam beradi. Jumladan yosh ishchi shogirdining yangi joyiga moslashishi qiyin kechdi. Unga barcha narsa qiyin tuyuldi, ishdan ketish fikriga ham keldi. Uning bu holatini Alijon aka sezib yosh ishchiga dalda bo'lib,

bilmaganlarini o'rgatdi.

Unga ish jarayonni tinch, diqqat bilan ko'rsatib, shunday dedi:

– Bu yerda odam ishda toblanadi. Bu kasb qiyin, lekin sharaflidir. Har bir tomchi tering kelajakni quradi. Chunki bo'linmamizda ishlab chiqarilayotgan prokat mahsulotlari mamlakatimiz qudratini oshiradi. Agar sen bu yerda toblansang, hayotning boshqa sinovlarida ham yengilmaysan.

Bu so'zlar odatda yoshlarning yuraklariga olovdek ta'sir qiladi. O'z ishlariga bo'lgan mas'uliyatlarini oshiradi. Shunday qilib mehnatda toblanib boradilar.

Metallurglar hayoti doim shunday – yurakda olov, ko'zda nur, yelkada mas'uliyat. Ular toblangan odamlar. Va Bekobod – ana shunday toblangan odamlar makonidir.

Ismat DIYOROV.

HADISLAR BO‘STONI

* Kimki bir chumchuqni bekordan-bekor o‘ldirsa, Qiyomat kunida u chumchuq Arsh oldiga kelib, baland ovoz bilan: “Parvardigorim, bu bandadan so‘ragin, nima uchun meni behuda o‘ldirdi ekan?” – deydi.

* Kim musulmonni qo‘rqitsa, Qiyomatda Alloh uni qo‘rqitadi.

* Zolim bilan birga yurgan odam jinoyat sodir qilibdi.

* Birodaringiz zolim bo‘lsa ham, mazlum bo‘lsa ham unga yordam bering! (zulm ildiziga bolta urish – ham zolimga, ham mazlumga yordamdir.

* Kimki biror gunoh ish qilishni niyat qilsa-yu, so‘ngra niyatidan qaytsa, unga bir yaxshilik savobi yozilajak.

* Biror banda dunyoda bir bandaning aybini yashirsa, Alloh taolo Qiyomat kuni uning ayblarini yashiradi.

**Imom Muslim rivoyatlari.
To‘plovchi Ibrohimjon domla INOMOV.**

“DAFTAR HOSHIYASIDAGI
BITIKLAR”

HAR KIM O‘Z ARAVASINI TORTSA...

Har kim o‘z yumushini bajarsa, olam – guliston. Sartaroshni suvoqchi qilib qo‘ysangiz, devorga sovun ko‘pigi surtadi. Etikdo‘zni sartarosh qilsangiz, odamning boshiga mix qoqadi...

TORTISH KUCHI

Oyog‘i yerdan uzilgan odamlarni ko‘rsam, nuqul bir narsani o‘ylayman. Yaxshiyamki, Xudo Yerga tortish kuchini ato etgan. Bo‘lmasa, insoniyat allaqachon koinotda qum zarrasidek yo‘qolib ketgan bo‘lard!

YO‘QCHILIK VA TO‘QCHILIK

Bir narsani hech tushunmayman: kitob o‘qiydiganlarda pul yo‘q. Puli ko‘plar kitob o‘qimaydi...

O‘tkir HOSHIMOV.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!



O‘zbekiston metallurgiya zavodiga 1967-yil mamlakatning esdalik bayrog‘i nima uchun doimiy saqlash uchun topshirilgan edi.

1970-yilda zavodimiz jamoasiga “Faxriy yorliq” nima uchun berilganini bilasizmi?

O‘tgan asrning 70-yillarida qaysi korxonalari o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqada choraklar yakuni bo‘yicha zavodimiz necha marta g‘oliblikni egallagan.

“Metallurg” sport-sog‘lomlashtirish majmuasida usti yopiq suzish havzasi qachon ishga tush-

ganligini bilasizmi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o‘tgan sonidagi savollarning javoblari.

• Qur‘onda boylik haqida odam imonining sinovi deyilgan.

• O‘zbekiston metallurgiya zavodi qurilishiga Shamet Aytmetov rahbarlik qilgan.

• Po‘lat zoldirlar stani qurilishi 1993-yil aprel oyida boshlangan.

• Mushuk.

• Asal.

• Xitoy.

• Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek.



BIRINCHI O‘QITUVCHIM

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda dars berayotgan erkak o‘qituvchilar soni juda kam. Lekin mening bolaligim – o‘tgan asrning 70-yillari shunday payt ediki, o‘sha vaqtda erkaklar ham boshlang‘ich sinflarga dars berishardi. Va mening birinchi o‘qituvchim ham aynan shunday kishi – Haydarali aka bo‘lgan.

Bugun u kishi oramizda yo‘q. Ammo biz – u kishining sobiq shogirdlari, Haydarali aka haqida doim minnatdorlik va ehtirom bilan gapiramiz. Chunki u inson faqat o‘quvchiga harf tanitgan emas, balki hayotni, odamgarchilikni, matonatni, tartib-intizomni ham o‘rgatgandi.

Haydarali aka sinfda barchaga birdek munosabatda bo‘lar, hech kimni ajratmas edi. Kerak paytda qattiqqo‘llik ham qilar, ammo bu qattiqqo‘llik mehribonlik bilan qo‘shilib ketgan bo‘lard.

U kishiga nafaqat boshlang‘ich sinfda, balki keyinchalik yuqori sinfda ham bizga ustozlik qilgan.

Chunki keyingi yillarda u “harbiy ish” fanidan dars berdi.

Bir voqea borki, u mening xotiramda abadiy muhrlanib qolgan.

Bir kuni tanaffusda biz bolalar sho‘xlik qilib arining uyasini buzib qo‘ydik. Uyasidan g‘azab bilan chiqqan arilar bizga yopirildi. Sinf-doshlarim qochib qutilishdi, men esa ulgurolmadim. Bir necha ari ko‘ylagim ichiga kirib, chaqa boshladi. Qo‘rquv va og‘riqdan baqirib yig‘lardim. Shunda ustozim – Haydarali aka yugurib kelib meni qutqardi. Ko‘ylagimni yechib, arilarni haydadi. Keyin esa yelkamga qo‘lini qo‘yib, shunday dedi:

– O‘g‘il bola yig‘lamaydi. Yig‘lasang, boshqalar ko‘rsa uyat bo‘ladi. Qo‘rqma, men sen bilanman.

O‘sha paytda u inson menga nafaqat og‘riqdan xaloslik, balki o‘zimga ishonch bag‘ishlagandi. Shu bir so‘zi menga katta dalda bo‘lgan.

Ismat DIYOROV.

TA‘LIMNING QULASHI — MILLATNING
YEMIRILISHIDIR

Janubiy Afrikadagi Stellenbosh universitetiga kirish eshigi oldidagi yozuv:

Har qanday davlatni yo‘q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofaga uchuvchi raketalaridan foydalanish shart emas, faqat ta‘lim sifatini pasaytirish va talabalarga imtixonlarda ko‘chirish imkonini berish kerak.

• Bemorlar ana shunday shifokorlar qo‘lida o‘lishadi;

• Binolar bunday muhandislar qo‘li bilan vayron bo‘ladi;



• Bunday iqtisodchi va hisobchilarning qo‘lidan pul yo‘qoladi;

• Bunday advokat va sudyalarning qo‘lida adolat yo‘qoladi.

Ta‘limning qulashi – millatning yemirilishidir...



MUASSIS:
**O‘zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro‘yxatga olingan.